

## TA'LIMDA FANLARARO O'QITISH USULLARI

Axmedova Zamira Ibrohim qizi

Guliston Davlat Universiteti magistranti

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada ta'lif jarayonida fanlararo o'qitish usullari, fanlararo aloqadorlik, ta'lif tarbiya va u bilan bog'liq jarayonlar haqida mulohaza yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** ta'lif, fanlararo aloqadorlik, fan, tarbiya, yangilik, texnologiya, bilim, model, bog'liqlik, integratsiya, innovatsiya.

Ta'lif jarayonida fanlararo aloqadorlik, innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarini o'quv jarayonida qo'llashga bo'lgan qiziqish, e'tibor kundan-kunga kuchayib bormoqda. Bunday bo'lishining sabablaridan biri, shu vaqtgacha an'anaviy ta'linda o'quvchilarni faqat tayyor bilimlarni egallashga o'rgatilgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalarda esa ular

egallayotgan bilimlarini o'zlari qidirib topishlariga, mustaqil o'rganib tahlil qilishlariga, hatto xulosalarni o'zlari keltirib chiqarishlariga o'rgatadi.

Ta'lif-tarbiya jarayoni har bir o'qituvchidan katta aql-zakovat, sabr-matonat, o'quvchilarga va o'z kasbiga yuksak mehr-muhabbatli bo'lishni talab etadi. O'qituvchining doimo izlanuvchan, bilim va tajribasini orttirib boruvchan bo'lishi, o'quvchilarni chuqr tushunish, ularning ichki dunyosini payqay olishi, o'sish va rivojlanish darajalarini nazorat qilib borishi va zarur paytda yordam bera olish qobiliyati ta'lif va tarbiya jarayonining muvaffaqiyatini ta'minlovchi omillardir.

O'quv jarayonida fanlararo aloqadorlikning amalga oshirilishi ta'lif sifatining oshirilishiga jiddiy ta'sir ko'rsatib, ta'lifni modernizatsiyalash, innovatsion o'qitish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Boshlang'ich bosqichlarda fanlarni integratsiyalash dars samaradorligini oshiradi, vaqtidan unumli foydalanishga olib keladi, darsni chuqr o'zlashtirishga yordam beradi, bo'sh vaqt orttiriladi va to'garaklarga jalb etiladi.

Olimlarning hisoblashiga ko'ra, fanlararo aloqadorlik nafaqat o'quv-tarbiyaviy jarayonni optimallashtirishning zaruriy sharti bo'lib, balki unga “fanlararo komponentlar” tushunchasini kiritish bilan alohida o'quv fanlari bo'yicha ta'lif berish mazmunini qurish manbasi bo'lib ham sanaladi. Bu, birinchi navbatda, bozor iqtisodiyoti sharoitida raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning samarali texnologiyalari hamda ulardan foydalanishning optimal pedagogik mexanizmlarini ishlab chiqish bilan bog'liq.

Fanlararo aloqadorlik o'quvchilarda bo'lajak kasbiy faoliyati haqida to'la tasavvurni shakkantiradigan hamda butun hayoti va faoliyati davomida mustaqil bilim olishlariga qaratilgan dialektik fikrlashni rivojlantiruvchi, ilm-fan sohalari orasidagi ob'ektiv mavjud aloqalarni tushunish asosida dunyoqarashni kengaytirishga zamin yaratadi. Ta'lifning bunday yondashuvida o'quvchilarning bilimi va ko'nikmalari kelgusi faoliyatda faqat sof predmet ko'rinishida namoyon bo'ladi. O'qituvchi fanlararo aloqadorlikka tayangan holda o'z fani vositalari



yordamida o'quvchilarda nafaqat bir o'quv fani doirasida, balki fanlararo aloqadorlik asosida to'liq bilish va fikrlash qobiliyatini shakllantira olishi zarurdir.

Kuzatuvlar va tadqiqotlar natijalari asosida fanlararo aloqadorlikdan foydalanish modeli tavsiya qilinadi:

- o'quvchilarda bilimlarni fanlararo biridan-biriga o'tkazish hisobiga kelgusi kasbiy faoliyat haqida to'la tasavvurni shakllantirish;
- fanlararo aloqadorlik vositasida maxsus fanlarni o'qitish jarayonida modulli o'qitishni tashkil etish;
- fanlararo aloqadorlikning asosiy mexanizmi sifatida dialektik fikrlash va refleksiya hisoblanuvchi mustaqil bilim olish jarayoni asosliligining ta'minlanishi.

Yuqoridagi talablar asosida fanlararo aloqadorlikdan foydalanish modelini quyidagicha tavsiya etish mumkin. Tavsiya etilgan modelning asosiy maqsadi fanlararo aloqadorlik asosida bo'lajak mutaxassislarni tayyorlash sifatini oshirishdan iborat. Fanlararo aloqadorlikdan foydalanish modeli o'quvchini tayyorlash sifatini ta'minlash va buning natijasida bo'lajak mutaxassisning butun hayot faoliyati davomida mustaqil ta'limni o'zlashtirishi bu faoliyatning yo'lga

qo'yilishini tavsiflaydi. Shunga bog'liq holda vaqt bo'yicha bu modelning rivojlanishidagi muhim belgi bo'lib, uning dinamikasi sanaladi va bu fanlararo aloqadorlik asosda mutaxassislarni tayyorlashda sifat darajalarini oshirishga ijobji ta'sir ko'rsatadi.

Fanlarni integratsiya qilib dars o'tilganda quyidagilarga e'tibor berish kerak.

- har bir dars muayyan maqsadga yo'naltirilgan bo'lishi kerak;
- fanlararo aloqalarga oid tanlangan qo'shimcha material o'tiladigan mavzu bilan bog'lanishi shart;
- fan o'quvchilari faolligini oshirish maqsadida ular bilan ishslash yo'llarini aniqlash mumkin.

Dars faqat ta'limiy bo'lib qolmasdan, o'quvchilarni insonparvarlik jihatlarini tarbiyalashga qaratilgan bo'lishi zarur. Mavzu mazmunidan kelib chiqqan holda, tabiat, jamiyat, inson tafakkuri, taraqqiyoti haqidagi bilimlar respublikamiz kelajagiga ishonch va e'tiqodni shakllantirishga qaratilgan bo'lishi kerak. Bu esa o'quvchi dunyoqarashini kengaytiradi. Umuman olganda integratsiya darsi bir- biriga mos kelishi (mavzu jihatdan) va puxta reja asosida tuzilgan bo'lishi kerak.

Ta'lim amaliyoti ko'rsatishicha, maktab ta'limida fanlararo aloqadorlikni yo'lga qo'yish fan va jamiyat hayotida bugungi kunda sodir bo'layotgan integratsion jarayonlarning yorqin ifodasisidir. Ushbu aloqadorlik o'quvchilarning bilimlarni ongli o'zlashtirishi, dunyo haqidagi yaxlit tasavvurlarni rivojlantirish va amaliy, ilmiy-metodik tayyorgarligini oshirishda muhim o'rinnegizida egallaydi. Bunday tayyorgarlik umumiy o'rta ta'lim o'quvchilarini darsda va darsdan tashqari mashg'ulotlarda, ishlab chiqarishda va umuman har qanday faoliyatda o'zlashtirgan bilim, ko'nikma va malakalarini erkin qo'llash imkonini beradi.

Hozirgi vaqtida pedagogik amaliyotda fanlararo bog'lanish asosida ta'lim jarayoni integratsiya yo'llarida izlanishlar davom etmoqda. Fanlararo bog'lanish, ya'ni integratsiya negizida o'quvchilarda fikrlash qobiliyatining har xil turlarini shakllantirish nazarda



tutiladi, bu esa o‘z navbatida bilim(anglash) jarayoni bilan chambarchas bo‘g‘liqdir. Professor R.Mavlonova fikriga ko‘ra integratsiya (fanlararo bog‘lanish):

- tabiatda mavjud bo‘lgan obyektlar orqali o‘quvchilarning shaxsiyatini shakllantirish;
- “tabiat - inson” tizimida aniq bilimlarga ega bo‘lishi uchun fikrlash qobiliyatini shakllantirish;
- materiallarni anglab yetish va didaktik moslashishni shakllantirish uchun o‘rganuvchi materialni bilimning har xil tarmoqlaridan olish;
- bilim, ko‘nikma, malaka tizimini ishlab chiqish;
- maktab o‘quvchilarida har xil turdagи fikrlash qibiliyatini shakllantirish, buning uchun ruhiy mashqlardan foydalanish, materialni tez o‘zlashtirishga yordam beradi, uni eslab qolish va hissiy anglash qobiliyatini shakllantiradi.

Bir-biriga yaqin, chegaradosh fanlar mazmuni o‘quvchilarni har tomonlama ruhiy rivojlanishiga, ularda turli xil tafakkurni rivojlantirishga qaratilgan. Har bir o‘quv predmetini o‘rganish bolaning materialni anglash jarayonini, unda eslab qolishni, ta’sirchanlikni faollashtiruvchi, tafakkurni, nutq va tasavvurni rivojlantiruvchi ruhiy diqqatni yaratishga imkon beradi. Ayniqsa, chegaradosh fanlardan egallangan bilim bir-biri bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan tafakkurning turlarini rivojlantirishda, fanlardagi mavzular mazmunining farqli va o‘xshashlik tomonlarini bilib olishda, bir fandan olgan bilim, malaka va ko‘nikmani boshqa fanlarda qo‘llash uchun imkoniyatlarni hosil qiladi.

Har bir fandan shakllangan tafakkur bolalar tomonidan fikrlarni umumlashtirish, xulosalar chiqarish, ma‘lumotlar to‘plash vazifasini bajaradi. Uning xususiyatlari tomonlaridan yana biri shundaki, u bolalarni fanlardan real voqeliklarni, shakl va usullarni o‘rganib ularni amaliy ishlarda qo‘llashga o‘rgatadi.

Fanlararo bog‘liqlikni o‘z o‘rnida tashkil etish bilan bir qatorda integratsion o‘quv topshiriqlarni tuzish va o‘quvchilarni bir jarayonga jalg etish ularning dunyoqarashi kengayishi, tafakkur olamining boyib borishida, bundan tashqari ta‘lim samaradorligini oshirishda muhim omillardan biri bo‘lib hisoblanadi.

Predmetlararo asosda tuzilgan integratsiya didaktik tizimga ega bo‘lib, u o‘qituvchi (ta‘lim beruvchi) va o‘quvchi(ta‘lim oluvchi) harakatlarining mos kelishini ko‘zda tutadi. Ikkala faoliyat ham umumiyligi tuzilish, ya’ni: maqsad, sabab, mazmun, vosita, natija va nazoratlarga ega. Biroq, o‘qituvchi va o‘quvchi faoliyatları mazmunida quyidagi farqlar bo‘ladi:

1. Maqsadli bosqichda o‘qituvchi umumiyligi maqsadni qo‘yadi, o‘quvchilar esa o‘qituvchi boshchiligidagi turli predmetlararo bog‘liqliklarni tushunishlari, kerakli va turli predmetlararo bilimlarni tanlab olishlari kerak bo‘ladi.

2. Isbotlash bosqichida o‘qituvchi o‘quvchilarning turli predmetlardan tushunchalarini umumlashtiradi, o‘quvchilar esa o‘z bilimlarini kengaytirishga bo‘lgan qiziqishga irodalarini yo‘naltirishlari kerak.

3. Faoliyat mazmuni bosqichida o‘qituvchi yangi material asosida integratsion dalillar, tushunchalar, muammolar majmuyi darajasida predmetlardan olingan tayanch bilimlarni jalg qiladi.



**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Adizov B.R., Najmuddinova G.N., Roziqova O.R. Didaktika. –Toshkent, 2012.
2. Yuldashev U.Yu, Boqiev R.R., Zokirova.F.M. Informatika va axborot texnologiyalari. O'quv qo'llanma. - T, 2004y
3. Sayidaxmedov N.S. Oliy pedagogik ta'limda integral texnologiyalar. 2003 y
4. Internet materiallari.